



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI

**TRANSPORT, ALOQA, TURIZM
VA UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGI
SOHALARIDA 2024-YIL 9 OYLIK
YAKUNLARI BO'YICHA ERISHILGAN
NATIJALAR**

Transport, aloqa, turizm va uy-joy kommunal xo'jaligi sohalarida 2024-yil 9 oylik yakunlari bo'yicha erishilgan natijalar

Sohalar kesimida bajarilgan ishlar:

I. Aviatsiya transporti.

"Uzbekistan Airports" AJ:

2024-yil oxiriga qadar:

- **109,3 ming dona** reys amalga oshirilishi kutilmoqda, ushbu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan **27 %** (9 oylikda 82,6 ming dona reys)ga oshdi;

- **11,8 mln nafar** yo'lovchiga xizmat ko'rsatish kutilmoqda, ushbu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan **26 %** (joriy yil 9 oylikda 8,8 mln nafar yo'lovchi)ga ko'proq hisoblanadi;

- jami daromad **6 450,0 mlrd so'm** va jami xarajat **5 938,7 mlrd so'm** tashkil etishi kutilmoqda, sof foyda **511,3 mlrd so'm** tashkil etadi (9 oylik yakunlari bilan daromad 5 071,0 mlrd so'm va xarajat 4 645,1 mlrd so'm, sof foyda 426,0 mlrd so'm).

"Uzbekistan Airways" AJ:

2024-yil oxiriga qadar:

- **37,3 ming dona** reys amalga oshirilishi kutilmoqda, 2023-yilga nisbatan **15 %** (2024-yil 9 oylikda 32,9 ming dona reys)ga ko'p;

- **6,0 mln nafar** yo'lovchiga xizmat ko'rsatish kutilmoqda, 2023-yilga nisbatan **20 %** (9 oylikda 4,6 mln nafar yo'lovchi)ga ortiq deganidir;

- jami daromad **20 133,6 mlrd so'm** va jami xarajat **19 408,0 mlrd so'm**ni tashkil etgan holda, sof foyda **725,6 mlrd so'm**ni tashkil etishi kutilmoqda (9 oylikda daromad 13 244,9 mlrd so'm va xarajat 12 762,8 mlrd so'm, sof foyda 477,1 mlrd so'm).

II. Temir yo'l transporti.

Sohani rivojlantirish bo'yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan "**Mahalliy yo'nalishlarda yo'lovchilarni tashish xizmatlarini ko'rsatishdan ko'rilgan zararlar hamda temir yo'l transportida yuk tashish xizmatlariga berilgan chegirmalarni Davlat byudjeti hisobidan kompensatsiya qilish tartiblarini belgilash to'g'risida**"gi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi ishlab chiqildi;

Yangi tahrirdagi "**Temir yo'l transporti to'g'risida**" gi qonuni qabul qilindi. (O'RQ-1006)

III. Jamoat transporti.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**Jamoat transportini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida**" gi qarori 2024-yil 25-martda PQ-139–son bilan qabul qilindi.

Joriy yilda "**Toshshahartransxizmat**" AJ tomonidan 9 oy davomida jami **230,7 mln** yo'lovchilarga xizmat ko'rsatilgan.

"**Toshkentmetropoliteni**" DUK tomonidan esa joriy yilning o'tgan davri mobaynida **133,6 mln** yo'lovchiga xizmat ko'rsatildi.

Xusususan:

- yo'nalishli yo'lovchilar soni – **112,9 mln**;
- imtiyozli yo'lovchilar soni – **4,2 mln**;
- oylik yo'l chiptalari – **9,8 mln**;
- tashilgan pensionerlar soni – **6,6 mln** nafarni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan **21,7 mln** yo'lovchiga ko'p hisoblanadi.

IV. Eksportni rag'batlantirish.

Eksportni rag'batlantirish Agentligi bilan birgalikda ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**Tashqi savdo va hududiy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlar birlashmalarining rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida**" qarori 2024-yil 14-martda PQ-126-son bilan qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-maydagi **PQ-4337-sonli** va 2020-yil 7-maydagi **PQ-4707-sonli qarorlariga muvofiq** mahalliy eksport qiluvchi korxonalariga mahsulotni eksport qilishda **transport xarajatlarning 50 foizigacha qismini** O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobiga kompensatsiya qilish tartibi hamda eksport va eksport oldi moliyalashtirish, eksport kreditlari va tavakkalchiliklarini sug'urtalash mexanizmlari joriy qilingan.

Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish uchun **2024-yil 3-chorakda budjetdan 113,8 mlrd so'm** mablag'lar ajratildi, shuningdek, eksport qilishda **transport xarajatlarning** bir qismini kompensatsiya qilish uchun **252,8 mlrd so'm**, eksport qiluvchilar garov sifatida sug'urta xizmatlaridan foydalanganda, **sug'urta mukofotini to'lash** bo'yicha xarajatlarni kompensatsiya qilish uchun **1,4 mlrd so'm** ajratildi.

Jumladan:

481 ta eksport qiluvchi korxonalariga eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni **eksport qilishda tashish xarajatlari**ning bir qismini qoplab berish bo'yicha **252,8 mlrd so'mlik** kompensatsiya mablag'lari to'lab berildi;

Buning natijasida mahalliy tadbirkorlar tomonidan **663,3 mln AQSH dollari** miqdorida **eksport** amalga oshirilgan.

37 ta eksportyor korxonalariga **garov sifatida sug'urta xizmatlaridan** foydalanganda **1,4 mlrd so'mlik** sug'urta mukofoti xarajatlari qoplab berildi;

Buning natijasida mahalliy tadbirkorlar tomonidan **22,1 mln AQSH dollari** miqdorida eksport amalga oshirilgan.

95 ta mahalliy eksport qiluvchi korxonalariga **xalqaro standart** va **sertifikatni joriy qilish** bo'yicha **14,2 mlrd so'mlik** moliyaviy yordam ko'rsatildi;

Buning natijasida mahalliy tadbirkorlar tomonidan **240,6 mln AQSH dollari** miqdorida eksport amalga oshirilgan.

115 ta mahalliy eksport qiluvchi korxonalariga **xalqaro ko'rgazma-yarmarka tadbirlarini tashkil etish** bo'yicha **11,5 mlrd so'mlik** moliyaviy yordam ko'rsatildi.

Buning natijasida mahalliy tadbirkorlar tomonidan **34,1 mln AQSH dollar** miqdorida eksport amalga oshirilgan.

V. Aloqa va kommunikatsiya.

Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda yangi tahrirdagi "**Telekommunikatsiyalar to'g'risida**"gi Qonun loyihasi ishlab chiqildi. Qonun loyihasi hozirgi davrda Oliy Majlis qonunchilik palatasida ko'rib chiqish jarayonida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyunidagi PF-85-sonli Farmoni bilan **xususiy provayderlarga xalqaro internet tarmoqlariga to'g'ridan to'g'ri ulanishga ruxsat berish** amaliyoti joriy qilindi.

Sohani yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "**Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida**"gi PQ-358-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "**Raqamlashtirish sohasida eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida**"gi PF-157-son va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2024-yil 14-oktabrdagi “**2024—2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida aerokosmik texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi PF-155-son Farmonlari qabul qilindi.

Xalqaro IT-sertifikatlarga ega yosh mutaxassislarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “**Xalqaro IT-sertifikatlarga ega yosh mutaxassislarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida**” 2021-yil 19-apreldagi 310-sonli qarori va “**Xalqaro IT-sertifikatlarga ega bo‘lgan yosh mutaxassislarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida**” 2024-yil 17-fevraldagi 95-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida hamda yoshlarni IT sohasida salohiyatini oshirish, shuningdek, IT bilimlarga qiziqtirish maqsadida **xalqaro IT-sertifikatlarni olish uchun xarajatlarini bir qismini davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplash tizimi** joriy etilgan.

Joriy yilning 3 chorak yakuniga qadar xalqaro IT-sertifikatlarni olish uchun **1 429 ta yoshlar qatnashgan** bo‘lib, ularning **606 tasiga 1,7 mlrd so‘m** xalqaro IT-sertifikat xarajatlari qoplab berildi (*joriy yilda mazkur xarajatlar uchun Davlat byudjetidan 3,9 mlrd so‘m mablag‘ ajratilgan*).

Bundan tashqari, ushbu davrda belgilangan vazifalarning ijrosini ta‘minlash maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 310-son qarori va 2024-yil 17-fevraldagi 95-son qarorlariga muvofiq respublikada IT sohasidagi oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilib, eng ko‘p talab qilinadigan **279 ta xalqaro IT-sertifikatlar ro‘yxati** shakllantirildi;

Xalqaro IT-sertifikatga ega bo‘lgan talabgorlarning xalqaro IT-sertifikatni olish xarajatlarining bir qismini qoplashga oid hujjatlar namunalari ishlab chiqildi;

Xalqaro IT-sertifikatlarga ega bo‘lgan yoshlarning o‘qish hamda ushbu sertifikatlarni olish xarajatlarining **60 foizgacha bo‘lgan qismini qoplab berish** tartibi hamda **ingliz tilida B2** va undan **yuqori darajadagi** sertifikatga ega bo‘lgan yoshlarning **xalqaro IT-sertifikatlar olish xarajatlarini to‘liq qoplab berish** tartibi joriy etilgan;

Qo‘shimcha ma‘lumot olish hamda kompensatsiya qilinadigan xalqaro IT-sertifikatlar ro‘yxati bilan tanishtirish maqsadida **it-istedod.uz portali** takomillashtirildi.

VI. Turizm sohasi.

Amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar:

Bugungi kunda yurtimizda turizm sohasini rivojlantirish hamda hududlarning turistik salohiyatini oshirish maqsadida barcha imkoniyatlarni ishga solgan holda sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. *Jumladan joriy yilda:*

Yurtimizga xorijdan tashrif buyurgan turistlar soni **5,73 mln nafar**ni tashkil etib, o'tgan yilgi yillik ko'rsatkichga (*5,39 mln*) nisbatan **0,34 mln** yoki **6 foizga** oshdi. Xorijlik turistlarning tashrifi hisobiga 2024-yilda **2 mlrd 143 mln AQSH dollari** mablag' tushumi amalga oshirilib, 2023-yil yillik ko'rsatkichga (*1 mlrd 372 mln AQSH dollar*) nisbatan **771 mln AQSH dollari** yoki **36 foizga** ko'paydi;

"O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida ichki turizm bo'yicha **18,8 mln nafar** mahalliy sayyohlar tashriflari amalga oshirildi;

2024-yil 9 oyi davomida **568 ta yangi joylashtirish vositalari** (*15 091 ta o'rin*), shundan, 97 ta mehmonxonalar, 193 ta xostellar, 276 ta oilaviy mehmon uylari, 2 ta sanatoriy va sog'lomlashtirish obyektlari tashkil etilib, joylashtirish vositalarining jami soni **5 983 taga**, o'rinlar soni **156,7 mingtaga** yetdi;

Turistlarga xizmat ko'rsatuvchi **696 ta yangi turistik tashkilotlar va turagentlar** faoliyati yo'lga qo'yilib, ularning umumiy soni **3 516 taga** yetkazildi. Bugungi kunda sohada jami **3 200 ta** gid-ekskursovodlar faoliyat olib bormoqda;

2024-yilning yanvar-sentabr oylari davomida **799 ta** sanitariya-gigiyena shoxobchalari holati yaxshilandi (*ularning 417 tasi yangidan qurilgan bo'lsa, 382 tasi hozirgi zamon talablari asosida qayta ta'mirlandi*). Shuningdek, Andijon viloyati **Xonobod shahrida** va Qashqadaryo viloyati **Shahrisabz shahri** tarixiy markazida **4 ta turizm axborot markazi** faoliyati yo'lga qo'yildi;

VII. Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi.

Amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar:

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi, vazirlik va idoralar hamda davlat dasturlari va boshqa tadbirlar bo'yicha 2024-yil 9 oylik uchun **2 927,2 mlrd so'm** mablag'lar yo'naltirilgan bo'lib, shundan ijro **2 676,4 mlrd so'm**ni tashkil etib, **91 %ga** bajarildi. *Jumladan,*

1. Aholiga issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun pasaytirilgan tariflarni qo'llash hisobiga vujudga kelgan zararlarni qoplash maqsadida issiqlik ta'minoti korxonalariga beriladigan subsidiyalar bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 30-iyuldagi 271-sonli Qarori bilan «**Aholiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar tariflaridan farqlarni byudjetdan qoplash**» tartibi tasdiqlangan.

Bunda, Issiqlik ta'minoti korxonalarini tomonidan aholiga past darajali tariflar qo'llanilishi hamda pasaytirilgan tariflar hisobidan vujudga keladigan zararlar Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari mablag'lari hisobidan qoplanishi belgilangan.

Qaror ijrosiga muvofiq, 2024-yil 9-oylik yakuni bo'yicha aholiga issiqlik ta'minoti xizmatlari tariflarini past qo'llash hisobiga ko'rilgan zararlarini qoplash maqsadida taqdim etilgan tegishli hisob-kitoblarga ko'ra **2 508,2 mlrd so'm mablag'lar issiqlik ta'minoti korxonalariga yo'naltirildi.**

Natijada, birinchi chorakda respublikadagi **19 ta issiqlik ta'minoti** korxonalarining **2,5 trln so'mlik zararlari** Davlat byudjetidan qoplab berilgan holda **aholiga issiqlik ta'minoti tariflarini amaldagi pasaytirilgan tariflarda yetkazilishi** ta'minlandi.

2. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-iyundagi 376-sonli qaroriga asosan **2021–2027-yillarda Ko'p xonadonli uylardagi lift uskunalari ta'mirlash va yangilash Dasturiga** muvofiq, 2024-yilda **165,7 mlrd so'm mablag'lar** ko'zda tutilgan bo'lib, 2024-yil 9 oylik yakuni bo'yicha yo'naltirilgan mablag'lardan **142,7 mlrd so'm** yoki **86 foiz mablag'lar** xarajat amalga oshirildi.

Joriy yil 1-oktabr holatiga **5 ta lift** joriy ta'mirlanib, **424 ta lift uskunalari to'liq yangilandi.** Yil yakuniga qadar jami **494 ta lift** uskunalari ta'mirlanib, yangisiga almashtirilishi kutilmoqda.